

**QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI  
MAHALLIYLASHTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING  
IQTISODIY MASALALARI**

**Dilafro‘z Radjabovna SADIKOVA**

tayanch doktorant

Toshkent Davlat yuridik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

ORCID: 0009-0005-8761-2767

[pstudy22@gmail.com](mailto:pstudy22@gmail.com)

**Feruz Kasimovich RAXMATOV**

mustaqil tadqiqotchi

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

Toshkent, O‘zbekiston

ORCID: 0009-0000-1627-1559

[rahmatovf@yahoo.com](mailto:rahmatovf@yahoo.com).

**Annotatsiya**

Maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati; jahon tajribasi va bugungi kunda erishilgan yutuqlar tahlili, soha rivoji uchun qo‘llanilayotgan iqtisodiy mexanizmlar ta’rifi va tahlili; muqobil energiya manbalarini yaratish, saqlash va iste’molchilarga yetkazishning iqtisodiy asoslari, “yashil” texnologiyalarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish masalalari; energiya tanqisligining oldini olish va tabiatga bezarar toza energiya manbalarini yaratish, bu jarayonga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy mezonlari o‘rganilib, muammolarga yechim sifatida taklif va tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** qayta tiklanuvchi, muqobil, yashil, ekologik toza energiya, yashil iqtisodiyot, mahalliyashtirish.

**ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ЛОКАЛИЗАЦИИ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ  
ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ**

**Дилафруз Раджабовна САДИКОВА**

базовый докторант

Ташкентский государственный

юридический университет

Ташкент, Узбекистан

[pstudy22@gmail.com](mailto:pstudy22@gmail.com).

**Феруз Касымович РАХМАТОВ**

независимый исследователь

Институт макроэкономических и

региональных исследований

Ташкент, Узбекистан

ORCID: 0009-0000-1627-1559

[rahmatovf@yahoo.com](mailto:rahmatovf@yahoo.com).

### **Аннотация**

В статье обсуждаются экологическое, экономическое и социальное значение возобновляемых источников энергии; анализ мирового опыта и современных достижений, описание и анализ экономических механизмов, используемых для развития отрасли; экономические основы создания, хранения и доставки альтернативных источников энергии потребителям, вопросы локализации производства «зеленых» технологий. Вместе с тем, изучены экономические критерии предотвращения дефицита энергии и создания экологически чистых источников энергии, привлечения иностранных инвестиций в этот процесс, а также разработаны предложения и рекомендации по решению проблем.

**Ключевые слова:** возобновляемая, альтернативная, зеленая, экологически чистая энергетика, зеленая экономика, локализация

XXI asr tom ma'noda, sayyoramiz va insoniyat tarixida yuksak taraqqiyot, fan-texnika va iqtisodiy rivojlanish asri bo'lishi bilan bir qatorda, yer yuzida antropogen iqlim o'zgarishlari va ekologik tanazzulning boshlanish davri bo'ldi.

Xususan, mamalakatimizda jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining oshishi, iqtisodiyotning tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirdi, ishlab chiqarish va qayta ishlash ko'lamining ortishi esa o'z navbatida atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda.

Jumladan, "Legatum Institute" tomonidan har yili farovonlik indeksi bo'yicha tuziladigan, 2023-yilgi Legatum prosperity Index reytingida O'zbekiston 162 ta davlat ichida 100 o'rinni egalladi [9]. Ushbu reyting dunyo mamalakatlarini 12 ta mezon bo'yicha baholaydi, unga ko'ra O'zbekistonda eng yomon ko'rsatkichlardan biri bu ekologiya hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, hozirda O'zbekiston ekologiyasi eng yomon Sudan, Mavritaniya, Lesoto va Pokiston kabi mamalakatlar qatoridan o'rin olgan.

O'zbekistonda ekologik vaziyatning yomonlashuvi, hususan atmosferaga chiqarilayotgan zaharli gazlarning asosiy qismi organik yoqilg'i hisobiga, ya'ni energetika tizimi ulushiga to'g'ri kelmoqda. Vaholanki "Energiya – har qanday iqtisodiyotning qon tomiridir" [10]. Energiasiz davlatlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda energetika sanoatidagi ijobiy tendensiyalar, energiya iste‘moli va uni ishlab chiqarish jarayonini qayta tiklanuvchi energiya (keying o‘rinlarda QTEM deb yuritiladi) hisobidan amalga oshirishning huquqiy jihatlarini bo‘yicha qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va QTEMga o‘tish davrida mamlakat iqtisodiyotining rivojiga huquqiy kafolat beradigan me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi.

Ilmiy izlanishlar davomida asosan QTEMni yaratish, saqlash va iste‘molchilarga uzatish borasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmon, qaror va farmoyishlari, hukumat qarorlari va qonun hujjatlari tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning QTEMni yaratish va undan dunyoda foydalanish ko‘lami borasidagi hisobotlarini so‘nggi yillar ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Mavzuni o‘rganish va yoritib berish uchun quyidagi metodlar qo‘llanilgan:

1. Milliy qonunchilikda mavjud QTEMdan foydalanishning huquqiy asoslarini o‘rganib chiqishga imkon beradigan empirik usul;

2. Dunyo hamjamiyati yillar davomida qabul qilgan QTEMni yaratish va undan foydalanish borasidagi normativ hujjatlar, nazariya va amaliyotdagi tajribalarini o‘rganib chiqish imkoniyatini beradigan tarixiy usul.

3. O‘zaro mavjud elementlar majmui sifatida milliy va xalqaro qonunchilik hujjatlarini qiyoslash usuli.

Bugungi kunda, butun dunyoda va hususan O‘zbekistonda ham QTEMni yaratish, saqlash, sotish va sotib olish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga solish dolzarb masaladir. QTEM manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat va jamiyat munosabatlarini huquqiy tartibga solishning normativ hujjatlarga asoslangan huquqiy tahlili o‘tkazildi. Bu borada jahon tajribasiga yuzlanadigan bo‘lsak, nazariy jihatdan sohani o‘rganib, amaliyotga tadbiq etish asnosida soha rivoji uchun o‘z gipotezalarini ilgari surgan quyidagi olim va davlat arboblarning fikr mulohazalarini keltirib o‘tamiz.

Britaniyalik olim, ekolog va futurist – James Lovelock GEYA nazariyasining asoschisi bo‘lib, unga ko‘ra sayyoramiz – o‘zini o‘zi shakllantiruvchi va barqarorlikni saqlovchi tizim deb tushuntiriladi. U inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

uzviy va tizimli bo'lishi kerakligini ilgari surib, yerning tabiiy resurslarini saqlab qolgan holda, energetika tizimini qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan almashtirishning muhimligini ta'kidlaydi [11].

Yevropa Qayta tiklanuvchi energiya assotsiatsiyasining prezidenti bo'lgan Hermann Scheer QTEMning global energetika tizimlariga ta'siri borasida muhim tadqiqotlar olib borgan. U QTEMga o'tishni energetika sohasining mustaqilligi va iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqan, U o'zining "Energiya avtonomiyasi" kitobida energiya ishlab chiqarishni markazlashtirilmagan holda tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Scheer energiya ta'minotining an'anaviy usullari ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror rivojlanishga zarar yetkazishini ta'kidlab, energiyaning muqobil variantlarinigina kelajagi porloq deb hisoblar edi [12].

Stanford universitetining fuqarolik va ekologik injeneriya kafedrasi professori Mark Z. Jakobson "Atmosfera va energetika" dasturi direktori sifatida ish olib borgan vaqtida QTEMga o'tish borasida keng ko'lamli tadqiqotlar o'tkazgan. AQSH va boshqa mamalakatlar uchun 100% QTEMdan foydalanish strategiyasini ishlab chiqqan. Uning modellari, shamol, quyosh va suv energiyalariga asoslangan global energetika tizimlarini joriy etishga bag'ishlangan [13].

Qayta tiklanuvchi – muqobil energiya manbalaridan foydalanishning huquqiy masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarida respublikamiz olimlari J.T.Xolmo'minov, Sh.X.Fayziyev, Y.A.Jurayev, M.Mirzaabdullayeva, O.X.Narzullayev, N.Sh.Rajabov, D.M.Umarov, G.Sh.Uzakova, D.Mahkamovlar energetika huquqini huquqning muhim instituti sifatida yoritganlar. Ular o'z ishlarida energetika qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasini xususan, an'anaviy va muqobil energiya manbalari, energiya resurslarini qidirish, qazib olish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tahlilini o'rganganlar.

So'nggi yillarda respublikamizda energetika sohasida ijobiy o'zgarishlar, energiya iste'moli va uni ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini oshirish, jumladan QTEM hisobidan yashil energiya ulushini ko'paytirish borasida salmoqli ishlar

amalga oshirilmoqda. Hususan, QTEMga o'tish davrida mamalakat iqtisodiyotining rivojiga huquqiy kafolat beradigan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, milliy-huquqiy bazani takomillashtirish va bu boradagi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish uchun sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2018-yil dekabrda iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvining ratifikatsiya qilinishi asnosida O'zbekiston is gazining (CO<sub>2</sub>) atmosferaga chiqarishni 2010-yilga nisbatan 10 foizga kamaytirish bo'yicha milliy majburiyatni oldi. Keyingi qadam – turg'un organic moddalar bo'yicha Stokgolm konvensiysining, qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha xalqaro agentlik ustavi (Bonn)ning ratifikatsiya qilinishi bo'ldi. Ushbu halqaro hujjatlar doirasida qabul qilingan majburiyatlar ijrosini ta'minlovchi bir qator normativ hujjatlar va qonunlar qabul qilindi.

Bu borada qo'yilgan ilk qadamlardan biri Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 8-avgustdagi "Fotoelektr stansiyalarini tashkil etish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va xususiy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 633-sonli qarorining qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu qaror ijrosi respublikamizda "yashil energiya" manbalarining umumiy hududiy va texnik salohiyatini baholash bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, QTEMni yaratish uchun kerak bo'ladigan tabiiy resurslarning mamalakatimizning olis hududlarida yetarli ekanligi, ekologik toza va texnik xavfsizligi, energiyaga bo'lgan talabni qondirish hajmi, hozirgi kunda mavjud energiya ehtiyoji, energiya resurslaridan foydalanish strategiyasini uzoq va yaqin istiqbolga mo'ljallab tubdan qayta ko'rib chiqish lozimligini belgilab berdi.

2019-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-sonli qarori bilan "2019-2030-yillar uchun O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" tasdiqlandi. Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarining energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash, QTEMdan foydalanishni rivojlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish asnosida, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ekotizimlarni asrash, qolaversa "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va zarur tovarlarni mahalliyashtirishning moliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish strategiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

2019-yil 21-mayda O‘zbekiston Respublikasining “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi soha rivoji uchun qo‘yilgan tamal toshi bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zotan, qonunda QTEMning asosiy tushunchalari, undan foydalanishni tartibga solish, soha rivojini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, sohada davlat boshqaruvi va vakolatlari, QTEMning o‘ziga xos xususiyatlari, undan foyadalanish borasidagi davlat hisobi, sohaning ilmiy-texnikaviy va innovatsion ta‘minoti, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash talablari va mezonlari belgilab berilgan.

Keyingi muhim hujjat bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 22-avgust PQ-4442-son qarori bo‘ldi. Unda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradoriligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng ko‘lamda joriy etish masalalari ko‘rib chiqilib, xalqaro tajribaga tayangan holda, an‘anaviy energetika resurslaridan tejamkorlik bilan smarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida, QTEMni rivojlantirishning maqsadli parametrlari va yo‘l xaritasi shakllantirilgan. Ushbu choralar, o‘z navbatida, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya sarfi hajmini keskin kamaytirish borasidagi ishlarni kompleks tashkil etish, shuningdek, yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona va smarali foydalanishni yo‘lga qo‘yilishini ta‘minlab beradi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bosqichma-bosqich va ekologik havfsiz bo‘lishi darkor. Mamalakatimizda barqaror rivojlanishga toza energiya va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish orqali o‘tish maqsadida 2019-yil 30-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5863-sonli farmoni bilan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muxitni muxofaza qilish konsepsiyasi” qabul qilindi. Ushbu konsepsiyada atmosfera havosiga chiqarilayotgan zararli gazlarni kamaytirish maqsadida, elektr energiyasi ishlab chiqaradigan quvvatlarning umumiy tarkibida qayta tiklanadigan muqobil manbalar ulushini ko‘paytirish, inshootlarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari, past uglerodli texnologiyalardan

(issiqlik nasoslari, qayta tiklanadigan energiya manbalari) foydalanishni rag'batlantirish; transport vositalarini elektr quvvatiga yoki muqobil yoqilg'iga o'tkazish, yoqilg'ining "Yevro-6" ekologik toifadagi standartlarini qabul qilish kabi atrof-muhit muhofazasi bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

Dunyo hamjamiyatining XXI asrda davlatlarning barqaror rivojlanish sari, ekologik tanazzulning oldini olish borasidagi konsepsiyasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 21-fevral 83-son qarori qabul qilindi va BMTning Barqaror rivojlanish dasturida belgilangan ustuvor maqsadlari milliyllashtirildi. Xususan, dasturning 7-maqsadi, arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkonini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unda 2030-yilgacha jahon energetika muvozanatida QTEMdan olinadigan energiya ulushini sezilarli darajada ko'paytirish, energiya samaradorligini kuchaytirish bo'yicha ko'rsatkichni ikki baravarga oshirish hamda zamonaviy va barqaror energiya bilan ta'minlash uchun infratuzilmani kengaytirish va texnologiyalarni modernizatsiya qilish ishlari asosiy maqsadlardan biri etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 9-sentyabr PF-220-son Farmonining qabul qilinishi natijasida, sohada energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish hamda kichik quvvatli energiya manbalarini rivojlantirish jarayonini jadallashtirdi. Ushbu farmonda aholi va davlat idoralari uchun quyosh, shamol va quyosh suv isitish qurilmalarini o'rnatganlik uchun kompensatsiya miqdorlari belgilandi. Quvvati 500 kVtgacha bo'lgan mikro gidroelektr stansiyalarni qurish uchun taklif etilayotgan loyihalar ro'yhati, biznes loyihalarni moliyalashtirish sxemasi va energiya samaradorligi quyi "D" va undan past toifadagi maishiy elektr priborlarni taqiqlangan ro'yxhti shakllantirildi. Bu orqali aholini sifatli mahsulotlar bilan taminlash, ushbu mahsulotlarni mahlliylashtirish uchun keng imkoniyatlarni ochib

berdi. Chunki, islohotlar natijasida yuzaga kelgan talab – mahalliy lashtirishning asosiy mezoni va kafolatidir.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 16-fevral PQ-57-son qarorida soha rivoji uchun yaqin kelajakdagi rejalar, amaliy ishlar dasturi va yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Jumladan, 2023-yilda qurilishi rejalashtirilgan davlat xususiy sherikchilik shaklidagi yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalarini va ularni elektr uzatish tarmoqlariga ulash loyihalarining manzilli ro‘yxati hamda ijtimoiy soha obyektlari, davlat idoralari, tadbirkorlarning bino va inshootlari va aholi xonadonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish ish rejalari belgilab berildi. Ushbu qarorga muvofiq aholi xonadonlariga umumiy quvvati 50 kVt gacha bo‘lgan quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish bo‘yicha “quyoshli xonadon” dasturi amalga oshirilishi, dastur doirasida ishlab chiqarilayotgan ortiqcha elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga 1000 so‘m miqdorida subsidiyalar alratilishi, ijtimoiy soha obyektlari, davlat organlari va tashkilotlarning QTEM qurilmalarini o‘rnatish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Yashil energiya” kompaniyasi tshkil etilishi hamda umumiy quvvati 4300 mVt bo‘lgan QTEM ishga tushirilishi ko‘zda tutilgan.

QTEMdan foydalanish O‘zbekistonda energetik, ekologik va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, hamda mamalakatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror iqtisodiy o‘shish konsepsiyasida keltirilganidek, bizning iqtisodiy o‘shishimiz shunday darajada bo‘lishi kerakki, kelgusi avlodlar uchun ham iqtisodiy o‘shish imkoniyatlari saqlanib qolishi lozim. Shu bois mazkur masala yechimi QTEM komponentlari va uskunalari mahalliy lashtirish, QTEM loyihalari doirasida mahalliy kontent ulushini oshirib borish, QTEMni yaratish, saqlash va undan foydalanishning huquqiy bazasini va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishdir.

Ayni vaqtda mamalakatimizda QTEMga o‘tish borasida tub islohotlar olib borilmoqda, jumladan, soha rivoji uchun huquqiy hamda institusional poydevor hozirlab, mahalliy loyihalarni amalga oshirishga kirishilmoqda. Bu borada biz “Yashil



iqtisodiyot”ni muvaffaqiyatli joriy eta olgan Skandinaviya mamlakatlari tajribasidan o‘rnak olsak arziydi.

Vaholanki, elektr energiyasi respublikamizning iqtisodiy yuksalishi, ijtimoiy rivojlanishi va aholining farovon turmush kechirishi uchun birlamchi ehtiyoj ekan, tabiat in’om etgan ne’matdan keng foydalanish ayni muddao bo‘ladi. “Yashil energiya va “yashil texnologiya”lardan foydalanish ko‘lami kengaygani sari, tabiiy manbalar tejaladi va tabiatga yetkazilayotgan zarar miqdori kamayadi. Energetika tarmog‘i yuklamalarini yengillashtirish, avariylarning oldini olish, tarmoqlardagi texnologik yo‘qotishlarni pasaytirish imkoniyati oshadi. Eng muhimi, ekologik toza energiyaga o‘tish jarayoni faollashadi.

*Tahlillarimiz natijasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining sohaga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:*

1. Xozirda mamalakatimizda yirik hajmdagi generatsiya quvvatlarini yaratish va mamlakatning umumiy energiya tizimi poydevorini bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan turli energiya manbalariga asoslantirish lozim.

Jahon tajribasiga ko‘ra, sohani qo‘llab-quvvatlash uchun QTEMdan foydalanishni rag‘batlantirishning qator iqtisodiy mexanizmlaridan foydalaniladi. Ushbu mexanizmlar orasida “yashil” sertifikatlash tizimi, texnologik ulash xarajatlarini davlat tomonidan qoplanishi, QTEM uchun qat’iy tariflar, sof o‘lchov tizimi kabi iqtisodiy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishdan avval milliy qonunchilikni auditdan o‘tkazib, milliy manfaatlarimizni inobatga olgan holda jahon talablariga moslashtirish hamda yagona tizimga keltirish zarur. Ayrim davlatlar ishni amaliyotdan boshlab, keyin qonunchilik bazasi bilan shug‘ullangani bois, turli muammolarga duch kelgan. Bunday xatolik o‘tish jarayonini sekinlashtirishi muqarrar.

Masalaning yechimi sifatida xozir mamalatimizga QTEMni yaratish, saqlash va uzatish xarajatlarini o‘z investisiyalari hisobdan qoplash sharti bilan kirib kelayotgan horijiy investorlar uchun narx-navoni belgilash va to‘lovni amalga oshirishning umumiy adolatli mexanizmlarini yaratish lozim. Ya’ni quyosh yoki shamol QTEMni kim va qancha miqdorda ishlab chiqaradi, u aholiga qay tartibda,

qanday tarif bo'yicha yetkazib beriladi – bu kabi savollarga asosli javoblarni ishlab chiqish uchun soha vakillaridan iborat maxsus komissiya yoki yagona masul tashkilot belgilanib, energetika tarmog'ida yangi quvvatlarni barpo etish bo'yicha barcha takliflarni sinchkovlik bilan o'rganib, investitsiya loyihalarni amalga oshirish jarayonini tezlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash vazifalarini yuklash.

2. Sohaga oid barcha parametrlar yoritib berilgan, qolaversa respublikamizning mavjud qonunchiligi doirasida barcha huquqiy mezonlar o'z aksini topgan yagona “Dastur” yaratilib, amaliyotga joriy etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mazkur dasturning ijrosini bevosita maxsus komissiya yoki mas'ul tashkilot zimmasiga yuklatish, sohada avtonom va oshkora “boshqaruv–ijro–nazorat” mexanizmini yaratish taklifini beramiz.

3. Hozirgi kunda import QTEM uskunalarini (geliotizim komponentlari va materiallari, quyosh panellari, inverterlar va h.k.) narxlari respublika aholisi uchun hamyonbop emasligi kuzatilmoqda.

Masalaning yechimi sifatida QTEM uskunalarini ayniqsa inverterlarni ishlab chiqarilishini mahalliyashtirish va ushbu masalani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini tashkil qilish taklifini beramiz. Masalaning yana bir muhim jihati, bugungi kunda kichik va o'rta muqobil energiya manbalarini keng joriy qilish hisobiga uzoq qishloq va ovullarni ham barqaror energiya manbalari bilan ta'minlash imkoniyati mavjud. Bu imkoniyatdan samarali foydalanish uchun “davlat – xususiy sektor – aholi” tamoyili asosida hamjihatlik va mavjud rag'batlantirish mexnizmlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida keltirib o'tgan tavsiyalarimiz QTEM dan foydalanishni rag'batlantirishning samarali iqtisodiy mexanizmlarini yaratish va huquqiy asoslarini takomillashtirish mamlakatimiz umumiy energiya iste'molida QTEM ulushining oshishiga, va o'z navbatida, yuqori iqtisodiy samaraga erishish, atrof-muhitga salbiy ta'sirning kamayishi va barqaror rivojlanishga erishish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. <https://lex.uz/docs/4346835>
2. Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилгача атроф-муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. <https://lex.uz/docs/4574010>
3. Энергия тежовчи технологияларни жорий қилиш ва кичик қувватли қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 9 сентябрь ПФ-220 сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/6189000>
4. 2019-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасининг яшил иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. <https://lex.uz/ru/docs/4539506>
5. 2023 йилда қайта тикланувчи энергия манбаларини ва энергия тежовчи технологияларни жорий этишни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 16 феврал ПКҚ-57 сонли қарори. <https://lex.uz/uz/docs/6385716>
6. Қайта тикланувчи энергия бўйича Халқаро агентлик Уставини (Бонн, 2009 йил 26 январь) ратификация қилиш ҳақида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. <https://lex.uz/docs/-3223021>
7. Фотоэлектр станцияларни ташкил этиш учун қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш ва хусусий инвестицияларни жалб қилиш чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 август 633-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3860088>
8. 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга оширишни жадаллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 21 феврал 83-сон қарори. <https://lex.uz/docs/5870397>
9. Rankings [Legatum Prosperity Index 2023]: <https://www.prosperity.com/>

10. Volker Roeben. [Towards a European Energy Union. European Energy Strategy in International Law] Cambridge, University press, 2018, 148p.
11. Lovelock J (1979), [GAYA: A new look at life on Earth] Oxford University press: [ISBN 978-0-19-217665-3](#).
12. Energy Autonomy: The Economic, Social & Technological Case for Renewable Energy, Routledge. 2006.
13. Jacobson, M.Z [100% Clean, Renewable Energy and Storage for Everything] Cambridge University Press, New York, 427 pp., 2020.
14. Парижское соглашение. <https://lex.uz/docs/5075088>
15. Стокгольмская конвенция [о стойких органических загрязнителях]. <https://lex.uz/ru/docs/4436177>